

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
FARMOYISHI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KEÑESINIŇ
BIYLIĞI**

2023 - yil 15 - noyabr

246-13-0-F/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

**Qoraqalpog'iston Respublikasida 2023-yil 15-noyabr – 15-dekabr kunlari
davomida “Yong'in xavfsizligi oyligi”ni o'tkazish to'g'risida**

Qoraqalpog'iston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar boshqarmasining 2023-yil 15-noyabrdagi 1/1/20-3395-sonli xatini inobatga olib:

1. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha Hukumat komissiyasining “Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha Hududiy komissiyalarning yong'in xavfsizligini ta'minlash borasidagi ishlari samaradorligini oshirish hamda “Yong'in xavfsizligi oyligi”ni o'tkazish to'g'risida”gi 86-sonli yig'ilish bayoni ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. Quyidagilar:

Qoraqalpog'iston Respublikasida **2023-yil 15-noyabr – 15-dekabr kunlari - davomida “Yong'in xavfsizligi oyligi”ni o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini** ilovaga muvofiq;

“Yong'in xavfsizligi oyligi”ning o'tkazilishida joylarga amaliy yordam ko'rsatish va belgilangan tadbirlarning ijrosini nazorat qilish maqsadida vazirliklar, idoralar, tashkilotlar rahbarlarini Nukus shahri va tumanlarga biriktirish ro'yxati 2- ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Nukus shahar va tumanlar hokimliklari:

uch kun muddatda hududiy komissiyalar yig'ilishlarini o'tkazib, yong'inlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha joylarda olib borilayotgan ishlar samaradorligini tahlil qilsin va “Yong'in xavfsizligi oyligi”ni o'tkazish bo'yicha tegishli qarorlari bilan chora-tadbirlar rejasini tasdiqlasin hamda yig'ilish bayonlari nusxasini Favqulodda vaziyatlar boshqarmasiga taqdim etsin;

har o'n kunda amalga oshirilayotgan ishlarning tanqidiy muhokama qilinishi hamda unda tegishli rahbarlar hisobotlarining eshutilishini ta'minlasin;

“Yong‘in xavfsizligi oyligi” doirasida rejalashtirilgan tadbirlarning ijrosini tizimli nazoratga olsin hamda mavjud muammolarni tezkorlik bilan bartaraf etish choralarini ko‘rsin;

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi (Qurbanbaev), “Hududgaz Qoraqalpog‘iston” GTF (Aymanov), Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududiy boshqarmasi (Sabirov), “Qoraqalpoq hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” AJ (Nurimbetov), Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi (Davletov) bilan birgalikda pech va dudburonlarga xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashgan tashkilotlarni jalb qilgan holda aholi xonadonlaridagi, shu jumladan, ko‘p kvartirali uy-joylardagi elektr, gaz va issiqlik ta‘minoti qurilmalari, isitish qozonlari, dudburonlar va shamollatish tizimlarining holatini texnik ko‘rikdan o‘tkazsin hamda ko‘riklar davomida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko‘rsin;

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi (Qurbanbaev), Suv xo‘jaligi vazirligi (Juzbaev) bilan birgalikda:

suvsiz hududlarda yong‘inga qarshi suniy suv ta‘minoti manbalarini tashkil etish;

mavjud tabiiy suv manbalaridan yong‘in-qutqaruv texnikalari bilan suv olish uchun maxsus joylarni (pirslar) barpo etish;

nosoq gidrantlar va yong‘inga qarshi suv hovuzlarini ta‘mirlash;

yangi tashkil etilayotgan aholi yashash punktlarida shaharsozlik normalari asosida yong‘inga qarshi suv ta‘minotini tashkil etish;

suvsiz hududlarda suv tashish texnikalarining doimiy navbatchiligini tashkil etish choralarini ko‘rsin;

Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi (Davletov) bilan birgalikda barcha tashkilotlarda hamda Favqulodda vaziyatlar bo‘limlarining yong‘in-qutqaruv bo‘linmalari yoki ko‘chma yong‘in o‘chirish texnikasiga ega idoraviy yong‘indan saqlash xizmatidan uzoq masofada joylashgan aholi punktlarida belgilangan tartibda ko‘ngilli yong‘indan saqlash xizmati bo‘linmalarini tashkil etish, shuningdek, faoliyat ko‘rsatayotgan ko‘ngilli bo‘linmalarining tarkibini yangilash choralarini ko‘rsin;

Manfaatdor vazirlik va idoralar rahbarlari bilan birgalikda:

“Yong‘in xavfsizligi oyligi” samarali tashkil etilishini, shuningdek, uning doirasida belgilangan chora-tadbirlar o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta‘minlasin;

rejalashtirilgan tadbirlarning natijadorligi uchun barcha bo‘g‘inlardagi rahbarlarning mas’uliyatini oshirish choralarini ko‘rsin;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari hamda qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalarni jalb etgan holda yong‘in xavfsizligi mavzusida plakatlar, buklet va boshqa turdagi ko‘rgazmali tashviqot materiallarini chop etsin;

“Yong‘in xavfsizligi oyligi”ni tashkil etish va joylarda amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha **har o‘n kunda** Favqulodda vaziyatlar boshqarmasiga batafsil axborot kiritib borsin;

oylik yakunlari bo‘yicha erishilgan natijalarni tanqidiy ko‘rib chiqib, sustkashlikka yo‘l qo‘ygan xodimlarga nisbatan ta’sir choralarini ko‘rsin, tadbirda faol ishtirok etgan xodimlarni rag‘batlantirsin.

4. Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududiy boshqarmasi (Sabirov), “Qoraqalpoq hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” AJ (Nurimbetov), “Hududgaz Qoraqalpog‘iston” GTF (Aymanov), bozorlar va savdo majmualari rahbarlari bilan birgalikda:

bozorlar va savdo majmualarini elektr energiyasi bilan ta’minlovchi transformatorlar, elektr taqsimlash qutilari hamda iste'molchilarga tortilgan sim va kabellarning iste'mol quvvatiga va belgilangan talablarga muvofiqligini ta’minlasin, shuningdek, sim va kabel mahsulotlarini sinovdan o‘tkazgan holda, ularning himoya (izolyatsiya) qatlami shikastlanganlarini almashtirish;

bir hafta muddatda bozorlar va savdo majmualarida taom tayyorlash maqsadida maishiy gaz ballonlaridan foydalanishga yo‘l qo‘ymaslik, umumiy ovqatlanish shoxobchalari uchun tabiiy gaz manbalari hamda tizimlarining kiritilishini taqiqlash choralarini ko‘rsin.

5. Tog‘-kon, geologiya va sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi Shimoliy mintaqaviy boshqarmasi (Urazbaev) Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududiy boshqarmasi (Sabirov) xavfli ishlab chiqarish obyektlarida, shu jumladan, gaz to‘ldirish shoxobchalari va punktlarida, avtomobillarga yoqilg‘i quyish va gaz to‘ldirish shoxobchalarida sanoat xavfsizligi va mehnat muhofazasi qoidalariga rioya qilinishini belgilangan tartibda o‘rganilishini tashkil etsin.

6. Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi (Davletov) Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi (Qurbanbaev), Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (Turmanov), Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Tog‘-kon,

geologiya va sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi Shimoliy mintaqaviy boshqarmasi (Urazbaev), Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududiy boshqarmasi (Sabirov), “Hududgaz Qoraqalpog‘iston” GTF (Aymanov), “Qoraqalpoq hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” AJ (Nurimbetov) Nukus shahar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda:

“Yong‘in xavfsizligi oyligi” doirasida ko‘p kvartirali uylar va yakka tartibdagi uy-joylar, ijtimoiy soha obyektlari, shuningdek, ishlab chiqarish korxonalari, bozorlar, yirik savdo majmualari hamda aholi ko‘p to‘planadigan boshqa obyektlarda yong‘inlarning oldini olish borasida keng ko‘lamli profilaktika tadbirlarini amalga oshirsin;

isitish mavsumida yong‘inlar, is gazidan zaharlanish yoki havo-gaz aralashmasining chaqnashi bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish maqsadida “xonadonbay” tartibda aholi o‘rtasida tushuntirish va targ‘ibot ishlarini olib borsin;

“Qoraqalpog‘iston Teleradiokompaniyasi” (Bekbao‘liev), Nukus shahar va tumanlar hokimliklari, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda ommaviy axborot vositalari orqali “Yong‘in xavfsizligi oyligi” tadbirining mazmun-mohiyati hamda yong‘inlar, is gazidan zaharlanish va havo-gaz aralashmasining chaqnashi bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish qoidalarining televideniya ommabop vaqtda maxsus teleko‘rsatuvlar orqali yoritish, mavzuga doir radioeshittirishlarni efirga uzatish, ijtimoiy tarmoqlarda axborot berib borish, shuningdek, doimiy ravishda davra suhbatlarini tashkil etish choralarini ko‘rsin;

“Yong‘in xavfsizligi oyligi”ni o‘tkazish davrida yong‘in-qutqaruv qismlarida “ochiq eshiklar kuni” tadbirlarini o‘tkazsin;

“Yong‘in xavfsizligi oyligi”ni o‘tkazish davrida asosiy e‘tiborni aholining yong‘inlar, is gazidan zaharlanish va havo-gaz aralashmasining chaqnashi bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari hamda uy-joy fondini yong‘in xavfsizligi talablariga muvofiq holga keltirishga qaratsin;

“Yong‘in xavfsizligi oyligi” yakuni bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar hamda mavjud muammolar to‘g‘risida joriy yil **18-dekabr**ga qadar Vazirlar Kengashiga umumlashtirilgan ma‘lumot kiritsin.

7. Vazirlik, idora va tashkilotlar davlat yong‘in nazorati organlari tomonidan muqaddam o‘tkazilgan profilaktika tadbirlari yoki tekshiruvlar natijasi yuzasidan taqdim etilgan tavsiyanoma yoki dalolatnoma (yozma ko‘rsatma)lardagi yong‘inga qarshi tadbirlarni amalga oshirish choralarini ko‘rsin hamda natijasi bo‘yicha

Favqulodda vaziyatlar boshqarmasiga belgilangan tartibda axborot taqdim etsin.

8. Tizimida o‘ta muhim davlat ahamiyatiga molik, yirik ijtimoiy-madaniy, shuningdek, belgilangan tartibda xavfli ishlab chiqarish obyektlari bo‘lgan vazirlik, idora va tashkilotlar Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi bilan birgalikda:

yangi tashkil etilayotgan o‘ta muhim, davlat ahamiyatiga molik, yirik ijtimoiy-madaniy, shuningdek, xavfli ishlab chiqarish obyektlarida belgilangan tartibda yong‘in-texnik komissiyalar faoliyatini yo‘lga qo‘ysin;

kadrlar tarkibidagi o‘zgarishlarni e‘tiborga olgan holda, mavjud yong‘in-texnik komissiyalar tarkibini yangilash choralarini ko‘rsin, obyektlardagi ko‘ngilli yong‘indan saqlash xizmatlarining (drujina, komanda) salohiyatidan samarali foydalanishga alohida e‘tibor qaratsin;

o‘ta muhim va toifalangan obyektlarning yong‘inga qarshi kurash holatini doimiy kuzatish maqsadida favqulodda vaziyatlar boshqarmasi bilan kelishgan holda soqchilik xizmatini belgilangan tartibda yo‘lga qo‘ysin.

9. Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi (Qojabaeva), Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududiy boshqarmasi (Kayupov), Sog‘liqni saqlash vazirligi (Qurbanov) Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi (Davletov) bilan birgalikda ta‘lim tashkilotlarining xodimlari va katta guruh tarbiyalanuvchilari, ta‘lim va tibbiyot muassasalarining xodimlari, o‘quvchi va talabalar ishtirokida yong‘inlar, is gazidan zaharlanish va havo-gaz aralashmasi chaqnashi bilan bog‘liq noxush holatlarning oldini olish va ularda to‘g‘ri harakat qilishga o‘rgatish yuzasidan suhbatlar, viktorinalar va o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazilishini ta‘minlasin.

10. “Taxiatosh IES” AJ (Xalilaev), “Uz-Kor Gaz Chemical” MChJ QK (Annaev), “Qo‘ng‘irot soda zavodi” MChJ QK (Mustafaev), Nukus xalqaro aeroporti MChJ (Bekbergenov), “Qo‘ng‘irot mintaqaviy temir yo‘llari uzeli” UK (Palimbetov), Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi (Davletov) bilan birgalikda o‘ta muhim va toifalangan obyektlarda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong‘in xavfsizligini ta‘minlash borasida mavjud va uzoq muddatdan buyon hal etilmayotgan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish, shuningdek, xizmat muddatini o‘tab bo‘lgan yoki nosoz yong‘in-qutqaruv texnikasi hamda asbob-anjomlarini yangilash choralarini ko‘rsin.

11. Mazkur farmoyishning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosari Sh.Dauletiyarov va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig‘i A.Davletov zimmasiga yuklansin.

**Qoraqalpog'iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F. Ermanov

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar
Kengashining
2023-yil 15-noyabrda
246-13-0-F/23-son farmoyishiga
1-ilova

Qoraqalpog'iston Respublikasida 2023 yil 15 noyabr – 15 dekabr kunlari davomida “Yong'in xavfsizligi oyiligi”ni o'tkazish bo'yicha CHORA-TADBIRLAR REJASI

№	Tadbirlar nomi	O'tkazish vaqti	Bajarish uchun mas'ul
Tashkiliy tadbirlar			
1.	Nukus shahri va tumanlarda “Yong'in xavfsizligi oyiligi”ni tashkil etish komissiyalarni tuzish va faoliyatini yo'lga qo'yish	14 noyabrga qadar va oylik davomida	Hududiy komissiya, Nukus shahri va tumanlar hokimliklari
2.	Nukus shahri va tumanlarda “Yong'in xavfsizligi oyiligi”ni o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va ijroga qaratish	14 noyabrga qadar va oylik davomida	Hududiy komissiya, Nukus shahri va tumanlar hokimliklari
3.	"Yong'in xavfsizligi oyiligi" davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi hisobotlarni umumlashtirish, tahlil qilish va tegishincha hududiy ishchi guruhga taqdim etib borish uchun Nukus shahri va tumanlar Favqulodda vaziyatlar bo'limlarida tegishli tashkilot va idoralar vakillaridan iborat shtablarni tuzish va faoliyatini yo'lga qo'yish	14 noyabrga qadar va oylik mobaynida	Hududiy komissiya, Nukus shahri va tumanlar hokimliklari
4.	Joylarda uy-joy fondi, ijtimoiy soha obyektlari, tunda insonlar qoladigan muassasalar, ommaviy aholi yig'iladigan obyektlarda yong'in xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarning bajarilishini jadallashtirish	Oylik mobaynida	Qoraqalpog'iston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi, “Hududgaz Qoraqalpog'iston” GTF, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy boshqarmasi, Sog'liqni saqlash vazirligi, O'ta muhim va toifalangan obyektlar, pech va dudburonlarga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashtirilgan tashkilotlar va tegishli xizmatlar
5.	Komissiyalar tomonidan har o'n kunda rejalashtirilgan tadbirlarning ijrosini muhokama qilinishi va ijrochilarning hisobotini eshitishni tashkillashtirish	Har 10 kunda	Hududiy komissiya, Nukus shahri va tumanlar hokimliklari

№	Tadbirlar nomi	O'tkazish vaqti	Bajarish uchun mas'ul
6.	"Yong'in xavfsizligi oyligi" yakuni bo'yicha natijalarni muhokama etish, sustkashlikka yo'l qo'ygan xodimlarni eshitish, faol qatnashgan xodimlarni o'rnatilgan tartibda rag'batlantirish choralari ko'rish	Oylik yakunida	Hududiy komissiya, Nukus shahri va tumanlar hokimliklari
Yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha asosiy tadbirlar			
7.	Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, davlat yong'in nazorati organlari va boshqa daxldor idoralar vakillari bilan birgalikda yong'in xavfsizligini ta'minlash masalalari uzoq vaqtdan buyon hal etilmay kelinayotgan obyektlar va aholi punktlarida o'rnatilgan tartibda natijador profilaktik tadbirlar uyushtirish	Oylik mobaynida	Qoraqalpog'iston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi, Nukus shahri va tumanlar hokimliklari, korxonalar va tashkilotlar
8.	Jamoatchilikni "Yong'in xavfsizligi oyligi" doirasida o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etishga keng jalb etish	Oylik mobaynida	Nukus shahri va tumanlar hokimliklari
9.	Ko'p kvartirali uylar va yakka tartibdagi uy-joylar, ijtimoiy soha obyektlari, tunda insonlar qoladigan muassasalar, shuningdek, ishlab chiqarish korxonalar, bozorlar, yirik savdo majmualari hamda aholi ko'p yig'iladigan boshqa obyektlarda yong'inlarning oldini olish borasida keng ko'lamli profilaktika tadbirlarini amalga oshirish. Bunda, birinchi galda, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini, past daromadli, ehtiyojmand va notinch oilalarni, profilaktik hisobda turgan shaxslar, spirtli ichimlikka ruju qo'ygan va yakka-yolg'iz yashovchilarning oilalariga e'tibor qaratish. Mavjud qoidabuzarliklarni bartaraf etish yuzasidan ta'sirchan choralarni ko'rish va zaruratga qarab bunda amaliy yordam ko'rsatish	Oylik mobaynida	Qoraqalpog'iston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, "Hududgaz Qoraqalpog'iston" GTF, "Qoraqalpoq hududiy elektr tarmoqlari korxonasi" AJ, pech va dudburonlarga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, "Qoraqalpog'iston Teleradiokompaniyasi", radiokanallar va internet jahon axborot tarmog'ining rasmiy kanllari
10.	Hokimliklar, korxonalar va tashkilotlar majlislarida ozlariga qarashli obyektlarda yong'in xavfsizligining ta'minlanganlik holatiga oid masalalarini muhokama etish, bunda, gaz, elektr energiyasi, suv ta'minoti va isitish moslamalarining ahvoriga e'tibor qaratish	Oylik mobaynida	Hududiy komissiya, Nukus shahri va tumanlar hokimliklari, tashkilot va idoralar
11.	Obyektlar, shuningdek, uy-joy fondining yong'iniga qarshi holatini yaxshilashga yo'naltirilgan mablag'larning sarflanishi ustidan nazorat o'rnatgan holda, yong'in xavfsizligini ta'minlash va yong'in o'chirish vositalarining yaroqli holatda bo'lishini ta'minlash choralari ko'rish	Oylik mobaynida	Hududiy komissiya, Nukus shahri va tumanlar hokimliklari, tashkilot va idoralar
12.	Davlat yong'in nazorati organlari tomonidan muqaddam o'tkazilgan profilaktik tadbirlar yoki tekshiruvlar natijasi yuzasidan taqdim etilgan mos ravishda tavsiyanoma yoki dalolatnoma (yozma ko'rsatma)lardagi yong'iniga qarshi tadbirlarni bajarish choralari ko'rish	Oylik mobaynida	Tegishli korxonalar va tashkilotlar

№	Tadbirlar nomi	O'tkazish vaqti	Bajarish uchun mas'ul
13.	O'ta muhim va toifalangan obyektlarda yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha uzoq muddatdan buyon hal etilmayotgan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish hamda xizmat muddatini o'tab bo'lgan yoki nosoz yong'in xavfsizligini ta'minlash va yong'in o'chirish vositalarini yangilash choralarini ko'rish	Oylik mobaynida	Korxonalar va tashkilotlar
14.	Yangidan tashkil etilgan o'ta muhim davlat ahamiyatiga molik, yirik yirik ijtimoiy-madaniy, shuningdek, belgilangan tartibda xavfli ishlab chiqarish obyektlarida Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 28-martdagi 89-son qaroriga muvofiq yong'in-texnik komissiyalarni tashkil etish hamda faoliyat ko'rsatayotgan yong'in-texnik komissiyalar tarkibini kadrlar tarkibidagi o'zgarishlarni e'tiborga olgan holda yangilash choralarini ko'rish	Oylik mobaynida	Korxonalar va tashkilotlar
15.	Idoraviy mansubligi va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'iy nazar barcha tashkilot (obyekt)larda hamda Favqulodda vaziyatlar vazirligining yong'in-qutqaruv bo'linmalari yoki ko'chma yong'in o'chirish texnikasiga ega idoraviy yong'inidan saqlash xizmatidan uzoq masofada joylashgan aholi punktlarida Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 28-martdagi 89-son qaroriga muvofiq ko'ngilli yong'inidan saqlash xizmati bo'linmalarini tashkil etish, shuningdek, faoliyat ko'rsatayotgan ko'ngilli bo'linmalarining tarkibini yangilash choralarini ko'rish	Oylik mobaynida	Hududiy komissiya, Nukus shahri va tumanlar hokimliklari, korxonalar va tashkilotlar
16.	Obyektlarda maxsus xizmatlar kuch va vositalarini jalb qilgan holda ko'rgazmali yong'in o'chirish taktik mashq va mashg'ulotlar o'tkazish hamda yong'in-qutqaruv texnikalarining taktik imkoniyatlarini namoyishini tashkil etish	Oylik mobaynida	Qoraqalpog'iston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi, korxonalar va tashkilotlar, "Qoraqalpog'iston Teleradiokompaniyasi", radiokanallar va internet jahon axborot tarmog'ining rasmiy kanllari
17.	Mahalla faollarini keng jalb qilgan holda aholi orasida yong'in xavfsizligini ta'minlash borasidagi tushuntirish ishlarini kuchaytirish, yong'inlarga va boshqa baxtsiz hodisalarga olib kelishi mumkin bo'lgan qoidabuzarliklar yuzasidan aholi bilan muhokamalar uyushtirish	Oylik mobaynida	Nukus shahri va tumanlar hokimliklari

№	Tadbirlar nomi	O'tkazish vaqti	Bajarish uchun mas'ul
18.	Mahallalarda "xonadonbay" tartibida amalga oshirilayotgan profilaktik tadbirlarda aholi o'rtasida isitish mavsumida yong'inlar, is gazidan zaharlanish yoki havo-gaz aralashmasining chaqnashi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan tushuntirish va targ'ibot ishlarini yanada kuchaytirish	Oylik mobaynida	Qoraqalpog'iston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi, Ichki ishlar vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, "Hududgaz Qoraqalpog'iston" GTF, "Qoraqalpoq hududiy elektr tarmoqlari korxonasi" AJ, pech va dudburonlarga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashtirilgan tashkilotlar
Yong'inlarni oldini olishga qaratilgan targ'ibot masalalari			
19.	O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining "O'ZBEKISTON 24" telekanali, "Qoraqalpog'iston teleradiokompaniyasi" va mahalliy TV larda yurtimizda "Yong'in xavfsizligi oyligi" o'tkazilishi haqida, ommaviy axborot vositalari orqali ushbu tadbirning mazmun-mohiyati hamda yong'inlar, is gazidan zaharlanish va havo-gaz aralashmasining chaqnashi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish talablarining televideniya ommabop vaqtida maxsus teleko'rsatuvlar orqali yoritilishini, mavzuga doir radioeshittirishlarning efirga uzatilishini, ijtimoiy tarmoqlarda axborot berib borilishini, shuningdek, doimiy ravishda davra suhbatlarini doimiy asosda uyushtirilishi doirasida keng qamrovli targ'ibot ishlarini amalga oshirish	Oylik mobaynida	Hududiy komissiya, Nukus shahri va tumanlar hokimliklari, "Qoraqalpog'iston Teleradiokompaniyasi", radiokanallar va internet jahon axborot tarmog'ining rasmiy kanllari
20.	Jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari hamda qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalarni jalb etgan holda yong'in xavfsizligi mavzusida plakatlar, buklet va boshqa turdagi ko'rgazmali tashviqot materiallari chop etilishini tashkil etish	Oylik mobaynida	Hududiy komissiya, Nukus shahri va tumanlar hokimliklari,
21.	Jamoat transporti, aholi ko'p yig'iladigan joylar va avtomobil yo'llarining katta chorrahalaridagi bilbordlar, elektron tablo va axborotni aholiga yetkazish vazifasini bajaruvchi boshqa texnik vositalarda "Yong'in xavfsizligi oyligi"ni ta'riflovchi tashqi reklama materiallarini joylashtirish	Oylik mobaynida	Nukus shahri va tumanlar hokimliklari

№	Tadbirlar nomi	O'tkazish vaqti	Bajarish uchun mas'ul
22.	Korxonatashkilot va mahallalarda tegishincha ishchi-xizmatchilar va aholi bilan, shuningdek, barcha turdagi maktabgacha ta'lim, ta'lim va tibbiyot tashkilotlarining xodimlari, katta guruh tarbiyalanuvchilari, o'quvchi va talabalari bilan yong'inlar, is gazidan zaharlanish va havo-gaz aralashmasi chaqnashining ayanchli oqibatlari, ushbu fojialardan saqlanish choralariga o'rgatish bo'yicha maqsadli uchrashuvlar, musobaqa va viktorinalar, mashg'ulotlar va davra suhbatlari o'tkazilishini ta'minlash	Oylik mobaynida	Qoraqalpog'iston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy boshqarmasi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Nukus shahri va tumanlar hokimliklari, tegishli tashkilot va idoralar, "Qoraqalpog'iston Teleradiokompaniyasi", radiokanallar va internet jahon axborot tarmog'ining rasmiy kanllari

Qoraqalpog‘iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023-yil 15-noyabrdagi
246-13-0-F/23-son farmoyishiga
2-ilova

“Yong‘in xavfsizligi oyligi”ning o‘tkazilishida joylarga amaliy yordam ko‘rsatish va belgilangan tadbirlarning ijrosini nazorat qilish maqsadida vazirliklar, idoralar, tashkilotlar rahbarlarini Nukus shahri va tumanlarga biriktirish RO‘YXATI

1	Nukus shahri	A.Qurbanbaev	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vaziri
2	Ellikqal‘a	Q.Nurimbetov	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vaziri
3	Amudaryo	S.Turmanov	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vaziri
4	Beruniy	X.Aymanov	“Hududgaz Qoraqalpog‘iston” GTF direktori
5	To‘rtko‘l	B.Juzbaev	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vaziri
6	Taxtako‘pir	P.Maxsetbaev	Yoshlar ishlari agentligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi boshlig‘i
7	Qorao‘zak	A.Nurimbetov	“Qoraqalpog‘iston hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” AJ bosh direktori
8	Chimboy	G.Qojabaeva	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vaziri
9	Kegeyli	N.Kayupov	Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududiy boshqarmasi boshlig‘i
10	Bo‘zatov	X.Qaypnazarov	Savdo-sanoat palatasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi boshlig‘i
11	Nukus tumani	M.Qurbanov	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vaziri
12	Taxiatosh	X.Bekchanov	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Soliq boshqarmasi boshlig‘i
13	Xo‘jayli	R.Sultanov	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vaziri
14	Sho‘manoy	B.Yusupov	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Transport vaziri
15	Qonliko‘l	U.Sabirov	Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududiy boshqarmasi boshlig‘i
16	Qo‘ng‘irot	B.Temirbaev	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Madaniyat vaziri
17	Mo‘ynoq	I.Urazbaev	Tog‘-kon, geologiya va sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi Shimoliy mintaqaviy boshqarmasi boshlig‘i

Izoh. Biriktirilgan rahbarlarning lavozimi o‘zgargan taqdirda, ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yohud zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.